

## O'quvchilarni Vatanparvarlik Ruhida Tarbiyalashda Tarixiy Merosimizning O'rni VA Ahamiyati

**Orziqulova Gulbahor**

*Ilmiy rahbar, JDPI akademik litseyi o'qituvchisi*

**To'rayev Diyorbek Otabek o'g'li**

*JDPI akademik litseyi o'quvchisi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:**

Muzeylar, milliy o'zlik, ekspozitsiya, ilm-fan va madaniyat.

### Annotatsiya

Barchamizga ma'lumki yurtimiz tarixiy merosi boy hisoblanadi. Ushbu maqolada o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tayyorlash va unda tarimiy merosimizning tutgan o'rni haqida so'z boradi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini o'stirish – bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadlaridan biri. Biz avvalo, o'zligini anglagan, vatanini kelajagi uchun bor mehnati ayamaydigan, ona yurt uchun fido bo'ladigan yoshlarni yuzaga chiqarishimiz darkor. Zero, o'zligini anglagan insondan faqat ezgu ishlar kutish mumkin. Prezident aytganlaridek: «Modomiki, o'z tarixini bilgan undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qutollantirish zarur»<sup>1</sup>. O'zlikni anglash – tarixni bilishdan boshlanadi. Tarix – kishini tarbiyalaydigan, mushohadaga chorlaydigan, o'tgan xato va kamchiliklarni ochib beradigan, kelgusida barqaror, puxta rejalarini tuzishga, muhimi, milliy davlatchilikni asoslarini yaratishga xizmat qiladigan “buyuk o'qituvchi” dir.

Vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularining asosini tarixiy merosimiz, asriy an'analarimiz tashkil qiladi. Tarixiy merosimizga esa ota-bobolarimiz qoldirgan qimmatli yodgorliklar – asarlar, tarixiy obidalar, muzeylarimiz kiradi. Yoshlarni vatanparvarlik, ona-vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rni nihoyatda katta. Muzeylarda go'yo tarix tilga kiringanday tarixiy merosimiz yanada ravshanroq ko'rinadi.

«Muzeylar - (yunoncha “musion” – muzalarga bag'ishlangan joy) – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasalar. Muzeylar xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san'at asarlari jamlanadi, shu bilan

<sup>1</sup>Islom Karimov

– “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”, Toshkent-1998. 24-bet.

birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi»<sup>1</sup>. Zamonaviy muzeylarning ko'plariga tadqiqot va ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning bir butunligi xos. Tarixiy merosimizni asrash, ularni kelgusi avlodlarimizga yetkazishda

muzeylarning o'zni va ahamiyati katta. Muzeylar yosh avlodni tarixga hurmat va vatanga muhabbat tuyg'ularida tarbiyalaydi. «Muzeining o'ziga xos ilmiy ommaviy va tarbiyaviy shakllari – ekspozitsiya, ko'rgazmalardir. Zamonaviy ilmiy tasnifda muzeylar tur va sohalar bo'yicha farqlanadi. Muzeylarda katta ilmiy tadqiqiy va tarbiyaviy ishlar olib boriladi: to'plamlar butlanadi va o'rganiladi; ilmiy hujjatlarni tayyorlanadi; muzey ashyolarini saqlash va ta'mirlash tartibini yaratiladi, monografiya, katalog, yo'l-ko'rsatkichlar nashr etadi; zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi. Tomoshabinlar bilan ishlashning eng muhim shakli ekskursiyadir»<sup>2</sup>.

Siyosiy, ilmiy madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muzeylarning paydo bo'lish tarixi uzoq qadimga borib taqaladi. Muzeylarning o'tmishdoshlari tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan asl buyumlarni xo'jalik maqsadlarida va moddiy boylik sifatida emas, balki memorial guvohnoma va estetik qimmatli asl narsalar sifatida saqlana boshlagan davrda yuzaga kelgan.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha muzeylarning turli soha va turlar bo'yicha turlari mavjud. Sayyoramizdagi muzeylarning ko'pchiligi tarixiy muzeylar bo'lib, ularda asosan tarixiy eksponatlar saqlanadi. Muzeylar bir-biridan eksponatlarining noyobliligi, qimmatliligi va u yerga tashrif buyuruvchilarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, bugungi kunda eng yaxshi muzeylar 10 taligi e'lon qilingan.

«Unga ko'ra: 1-o'rin – Luvr muzeyi (Parij–Fransiya); 2-o'rin – Vatikan muzeyi (Vatikan–Rim–Italiya); 3-o'rin – Metropolitan muzeyi (Nyu-York–AQSh); 4-o'rin – Polagetti muzeyi (Los-Anjeles–AQSh); 5-o'rin – Orse muzeyi (Parij–Fransiya); 6-o'rin – Uffitsi galareyasi (Florensiya–Italiya);

7-o'rin – San'at institutining muzeyi (Chikago–AQSh); 8-o'rin – Tey zamonaviy galareyasi (London–BuyukBritaniya); 9-o'rin – Prado muzeyi (Madrid–Ispaniya); 10-o'rin – Vashington milliy galareyasi (Vashington–AQSh)

kabi muzeylar o'zining serhashamliligi va o'zidagi eksponatlarining noyobliligi bilan o'rin egalladilar»<sup>1</sup>. Ushbu mashhur dunyo muzeylarida tarix, din, tabiat, milliy an'analar, madaniy hayot va shu kabilar tarixi o'z aksini topmoqda.

Mustaqil vatanimizda milliy o'zlikni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, bizning yurt ajdodlarining tarixda ko'rsatgan buyuk xizmatlarini xolis o'rganish va targ'ib etish alohida ahamiyat kasb etadi. Sovet davrida faqat «Qizil imperiya» mafkurasiga xizmat qilgan muzeylar endilikda milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi lozim. Mustaqillik davrida muzeylar ishiga alohida e'tibor berilmoqda. Buning bir qancha omillari bor: **Birinchidan**, mustamlakachilik yillarida ongimizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularni qayta tiklash; **Ikkinchidan**, milliy g'urur, milliy ongni yuksaltirish uchun unutilgan tariximizni qayta tiklash; **Uchinchidan**, ajdodlar hurmatini joyiga qo'yish, yosh avlodni ajdodlar nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, milliy g'ururini yuksaltirish, buyuk an'analarning davomchisi etib tarbiyalash; **To'rtinchidan**, milliy qadriyatlarimiz bizga demokratik, huquqiy, qudratli O'zbekiston davlatini barpo etish uchun «O'zbekiston kelajagi - buyuk davlat» g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun kerak; **Beshinchidan**, milliy qadriyatlarimiz mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak. Ushbu omillarga Prezidentimiz asarlarida qayta-qayta to'xtalib o'tilgan. Ana shu maqsadlar hukumat siyosiy tadbirlarida o'z ifodasini topmoqda.


1998-yil 12-yanvarda «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi. Farmonda asosan, O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy

<sup>1</sup>Internet, google – Muzeylar haqida.

<sup>2</sup>Internet, google – Dunyo muzeylari.

tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab-asrash, o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, ulardan xalqimizning ongida milliy g'urur va iftixor, istiqloq va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo'lashga zarur sharoitlar yaratish chora-tadbirlari belgilanadi. Shunga ko'ra, Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida muzeylarni qo'llab-quvvatlovchi "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil qilindi. Bu jamg'arma muzeylar fondlarida yillar davomida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixidan guvohlik beruvchi noyob nodir eksponatlarni avaylab-asrash, ularni ilmiy tomonlarini o'rganish, ta'mirlash, yangi eksponatlar bilan muzey zallarini boyitish bilan shug'ullanmoqdalar.

«Yurtimizga kelgan mehmonlar va sayyohlar o'zbek xalqining tarixi va boy o'tmishi, madaniyati, ma'maviyati haqida ana shunday muzeylarda bo'lib to'liq ma'lumot olishi, boy tasavvur hosil qilishi mumkin. Mamlakatimizdagi muzeylar ilmiy-ma'rifiy muassasa bo'lib, tabiiy, moddiy, ma'naviy madaniyat yodgorliklarini yig'ish, saqlash, o'rganish, targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. Ana shunday muzeylardan biri **Toshkent shahrining** markazida Amir Temur hiyobonida sharqona uslubda qurilgan "Temuriylar tarixi davlat muzeyi" dir»<sup>1</sup>.



Muzey 1996-yili Sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Amir Temur hiyoboniga tutash hududda barpo etilgan. Binoning butun aylanasi bo'ylab

<sup>1</sup>Bolalar ensiklopediyasi, Toshkent-2000, 328-

bet.

joylashgan ayvonnini oq ustunlar ko'tarib turibdi. Tashqi devoriga esa ezgulikka undovchi - Adolat, Itoat, Zarofat, Ma'rifat, Diyonat, Oqibat, Marhamat, Qadriyat, Sadoqat, Muvaffaqiyat, Matonat, Muruvvat, Shijoat va Mashvarat so'zlari bitilgan. Muzeyning balandligi 31, diametri 70 metr. Muzey gumbazini yoritib turgan "Zumrad" deb nomlangan qandilning og'irligi 2 tonnadan oshadi. Unga 500 ta yoritgich o'rnatilgan. Muzey 3 qavatdan iborat. Birinchi qavatida xazinaxona, anjumanlar zali, ma'muriyat joylashgan. Ikkinchi qavatdagi devor markazidan "Buyuk Sohibqiron - buyuk bunyodkor" deb nomlangan panno joy olgan. Ushbu pannoda Amir Temurning taxtda o'tirgan holati aks ettirilgan bo'lib, ushbu suratga qaragan har bir shaxsda Amir Temur siymosiga va tarixga muhabbat tuyg'ulari paydo bo'ladi. Ayniqsa, yosh avlod qalbida vatanparvarlik hamda buyuk sohibqiron kabi jasorat, matonat, intiluvchanlikka va bunyodkorlikka bo'lgan intilish ildiz otadi. Uchinchi qavatda Markaziy Osiyoning ilk Uyg'onish davridan to Sohibqiron davrigacha va Temuriylar hayotidan hikoya qiluvchi eksponatlar, rang-barang osori-atiqalar o'rin olgan. Bugungi kunda muzeyda temuriylar tarixidan so'zlovchi 5 mingga yaqin eng noyob yodgorliklar saqlanmoqda. Qo'lyozmalar, yozishmalar, kumush va mis tangalar, sopol va mis buyumlar, me'moriy qoplamalar, kitoblar, tangalar qolaversa,

Samarqandda 1941 yilda topilgan ashyolar, Bibixonim munchog'i va hokazolar. Bugungacha dunyoning eng yirik muzeylarida saqlanayotgan Temuriylar davriga oid 20 dan ortiq noyob eksponatning nusxalari tayyorlangan. Shulardan biri Sankt-Peterburg shahridagi Ermitajda saqlanayotgan Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim va Amir Temurning o'g'li Mironshoh Mirzoning uzuk-muhrlaridan olingan nusxalardir. «Muzei xodimlarining sa'y-harakati bilan «Temuriylar davri madaniy yodgorliklari», «Amir Temur va temuriylar davri: yangi tadqiqotlar», «Temuriylar saltanatida davlatchilik va renessans», «Temuriylar tarixiga oid manbalar», «Temuriylar tarixiga oid manbalar. Tavsif-tarjima-tadqiqot», «Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat», «Temuriylar davri tadqiqotlar va muammolar» to'plamlari nashr qilingan. Ayni paytda «Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati» mavzuida tadqiqotlar olib borilmoqda»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup>Internet - [www.muzei.uz](http://www.muzei.uz) sayti.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda 18-oktabrda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 martdagi 99-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi. Bizning Jizzax viloyatimizda ham tariximizni, an'analarimizni, turmush tarzimizni, milliyligimiz hamda madaniy hayotimizni aks ettiruvchi noyob qo'lyozmalar o'rin olgan bir qancha muzeylar mavjud. Ularga: Jizzax viloyat O'lkashunoslik muzeyi, Hamid Olimjon uy-muzeyi, Hamraqlul Nosirov uy-muzeyi, Sharof Rashidov muzeyi, G'allaorol tuman tarixi muzeyi, Baxmal tuman tarixi muzeyi, Zomin tuman tarixi muzeyi kabilar misol bo'la oladi. Ushbu muzeylardagi noyob va qadrlı eksponatlar bundan bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan bo'lib, undan qadimda ajdodlarimiz foydalanganlar. Muzeylardagi eksponatlar arxeologik qazishma ishlari natijasida topib, o'rganilgan.



**Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi.**



**Jizzax v. O'lkashunoslik muzeyi.**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muzeylardagi har bir qo'lyozma va moddiy-ashyoviy boyliklar har bir shaxs qalbida, ayniqsa, yosh avlod qalbida tarixga bo'lgan qiziqish hamda vatan tarixiga bo'lgan hurmatni yuksaltiradi. Xususan, Jizzax viloyati O'lkashunoslik muzeyining Tarix bo'limidagi noyob eksponatlar muzeyga tashrif buyurayotgan har bir inson qalbida ushbu ashyolarga qiziqish uyg'otadi va bu insonlar eksponatlarning paydo bo'lish tarixini bilishga intiladi. Hozirda yurtimizdagi

<sup>1</sup>O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 6-jild, Toshkent-2003, 114-b.

muzeylarga tashrif buyuruvchilarning ko'pchiligi yoshlar bo'lib, yosh avlodning tarixni bilishga bo'lgan intilishini namoyon qilmoqda.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Islom Karimov - «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», Toshkent-1998.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 6-jild, Toshkent-2003.
3. Bolalar ensiklopediyasi, Toshkent-2000.
4. Internet – Google; [www.lex.uz](http://www.lex.uz) sayti.
5. Q.Usmonov - “O'zbekiston tarixi”, Toshkent-2011.